

**KANAKUNJUT VA UNING FOYDALI XUSUSIYATLARI**

Siddiqova Yulduz Xusanovna

Samarqand Davlat Unersiteti Urgut filiali tabiiy  
fanlarni o'qitish metodikasi kafedrası assistenti

Dilmurodov Navro'z

Samarqand Davlat Unersiteti Urgut filiali biznesni boshqarish va tabiiy  
fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi 113-guruh talabasi

**Annotatsiya:**

Kanakunjut qadimdan ma'lum bo'lgan o'simlikdir. Ma'lumotlarga ko'ra kanakunjut Sharqiy Afrikadan kelib chiqqan deb topilgan. Hozir ham Abissoniyada va Eritriyada yovvoyi holda o'suvchi kanakunjut ko'p uchraydi. Har xil tuproq-iqlim sharoitida tarqalganligi tufayli kanakunjutning xilma-xil shakllari vujudga kelgan. Ilmiy izlanishlar natijasida kanakunjutni O'zbekistonda ham yetishtirish imkoniyatlari mavjudligi isbotlangan.

**Annotation:**

Sesame is a plant known since ancient times. According to information, sesame is believed to have originated from East Africa. Even today, wild-growing sesame can be found abundantly in Abyssinia and Eritrea. Due to its widespread distribution across various soil and climatic conditions, different forms of sesame have emerged. Scientific research has proven that sesame can also be cultivated in Uzbekistan.

**Аннотация:**

Кунжут-это растение, известное с древних времён. Согласно информации, кунжут происходит с Восточной Африки. И по сей день дикорастущий кунжут широко встречается в Абиссинии и Эритрее. Благодаря распространению в различных почвенно-климатических условиях, возникло множество форм кунжута. Научные исследования доказали, что кунжут можно выращивать и в Узбекистане.

**Kalit so'zlar:** Kanakunjut, moyli ekin, dorivor o'simlik, manzarali o'simlik, sutlamadoshlar oilasi, yod soni, agrotexnika, tibbiy xususiyatlar.

**Keywords:** Sesam seeds, oilseed rape, medicinal plant, ornamental plant, number of iodine, agrotechnics, medical feature.

**Ключевые слово:** Кунжут, жирный растение, лекарственный растение, декоративный растение, количество йода, агротехника, медицинский характеристика.

Kanakunjut-sutlamadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, asosan, moy olish uchun ekiladigan ekin. Vatani Shimoliy-Sharqiy Afrika hisoblanadi. Kanakunjutning poyasi o'tsimon, ichi kovak, tik o'sadi. Rangli barglari yirik, qalqonsimon, uzun bandli (25-60 sm), bo'laklarga bo'lingan. Guli mayda, yashil, gulto'plami shingil, shakli ponasimon, 5 ta gultojibargdan iborat.

Mevasi-uch uyali ko'sakcha. Ayrim poyalarda ko'sakchalar yetilganda chatnaydi. Urug'i-tuxumsimon, yirik, 1000 ta urug'i vazni 150-500 g, tarkibida 40-57% moy mavjud. Kanakunjut issiqsevar, yorug'sevar, namsevar o'simlik, unumdor yerlarda yaxshi o'sadi. O'sish davri 120-150 kun. Moyi qurimaydigan (yod soni 82-86) guruhiga kiradi.

Zamonaviy tibbiyotda kanakunjutning urug'idan olingan moyi ishlatiladi. Urug'i zaharli, tarkibida ko'p miqdorda moy, lipaza fermenti, oqsil (shu jumladan, o'ta zaharli ritsin), ritsinin alkaloidi va boshqa moddalar bor. Kanakunjut moyi eng yaxshi surgi sifatida qo'llanadi. Bundan tashqari, u terini yumshatish uchun, ginekologiya va jarrohlik amaliyotida hamda surtma va balzamlar tarkibiga qo'shib, kuyganni, yaralarni, leyshmaniozni davolashda ishlatiladi, moyidan olingan undesilen kislotasining surtmasi ("undesin") dermatozlar, psoriasis va boshqa teri kasalliklarida qo'llaniladi. Kanakunjut yog'idan o'z o'rnida foydalanilsa bir qator xastaliklarga shifo bo'ladi.

So'gallarni ketkazish uchun kechqurun yotishdan oldin 20 daqiqa davomida kanakunjut yog'i so'galga surtiladi. Yangi tug'ilgan go'dakning kindigi tezda tuzalmayotgan bo'lsa, unda kanakunjut yog'i surtib turmoq lozim. Kanakunjut yog'i haftasiga bir marta kipriklarga surtilsa, kipriklar tez o'sadi. Ayollarning ko'krak beziga kanakunjut yog'i surtilsa, sut ajralishi ko'payadi. Go'dakning sochi sekin o'sayotgan bo'lsa, uning boshiga kanakunjut yog'i singdirib surtiladi. Odatda bunday muolaja haftasiga ikki marta qo'llanilib, kechqurun surtilgan yog' ertalab yuvib tashlanadi. Sochning o'sishi jadallashgach, bunday tadbir haftasiga bir marta qo'llanishi mumkin.

Bavosil qiynayotgan bo'lsa, to'g'ri ichakning tashqi qismiga kanakunjut yog'i surtiladi. U shilliq qavatni yumshatib, davolanishga yordam beradi.[9]

Tik turib mehnat qilish natijasida oyoqlar zirqirab og'riydigan bo'lsa, haftasiga ikki marotaba uyqudan oldin oyoqqa kanakunjut yog'i ishqab surtilgach, ustidan paxta matoli paypoq kiyib yotiladi. Bunday muolaja qo'llangach, oyoq terisi mayin tortib noxush og'riqlardan xalos bo'lishi mumkin.

Tanangizda yaralar bo'lsa, kanakunjut yog'ini surting, yaradan xalos bo'lasiz.

Shamollaganda yoki bronxit bilan og'riganda 1 oshqoshiq skipidar va 2 oshqoshiq kanakunjut yog'i aralashtirilib, ko'krakka yengil surtilgach, issiq mato bilan o'ralsa tuzalish tezlashadi.

Moyli ekinlar turli botanik oilalarga mansub, ular-karamdoshlar, dukkakdoshlar, sutlamaguldoshlar va boshqalardir. O'simlik moyi-glitserinining moy kislotalari bilan birikishidan vujudga keladigan murakkab efirlardir. Yog' tarkibiga uglerod (75-79 %), vodorod (11-13 %) va kislorod (10-12 %) kiradi. Oqsil va uglevodga nisbatan moyning quvvati ikki-uch barobar ortiqdir. 100 g moy qancha yodni qabul qilsa, shunga qarab yod soni aniqlanadi. Yod soni ko'p bo'lgan moy tez quriydi. Shunga qarab o'simlik moyi 3 guruhga bo'linadi: - quriydigan moy (perilla, lyalemansiya, rijik, zig'ir moyi)-yod soni 130 dan ortiq bo'ladi; - yarim quriydigan moy-yod soni 85-130 ta bo'lib, bu oziq-ovqatda ishlatiladigan moy (kungaboqar, kunjut, soya, raps, xantal, maxsar); -qurimaydigan moy (yeryong'oq va kanakunjut moyi)-yod soni 85 dan kam bo'ladi.

Kanakunjut-sutlamadoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik, asosan, moy olish uchun ekiladigan ekin. Kanakunjutning 3 turi uchraydi: mayda urug'li kanakunjut, yirik urug'li kanakunjut, zanzibar kanakunjuti. Misrda bundan to'rt ming yil avval ekilganligi ma'lum. Vatani Shimoliy-Sharqiy Afrika. Jahondagi ko'pgina mamlakatlar dehqonchiligida ikki, uch yillik yoki bir yillik ekin tarzida o'stiriladi. O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalarida bir yillik ekin. Kanakunjut ekilgan maydonlar jahon bo'yicha 1500 ming gektarga yaqin, o'rtacha hosildorlik 11,0 s/ga.ni tashkil qiladi. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarida hosildorligi 20-25 s/ga.

Kanakunjutning asosiy xususiyatlari:

**Daraxtning o'sish joyi:** Kanakunjut tropik va subtropik mintaqalarda o'sadi. O'zbekistonning janubiy hududlarida ham bu o'simlikni uchratish mumkin.

**Barglari va gullari:** O'simlikning barglari katta, to'q yashil rangda bo'ladi. Gullar esa sariq rangda va guruhlar holda joylashgan.

**Urug'lari:** Kanakunjutning urug'lari o'simlikning eng qimmatli qismi bo'lib, ular ko'plab sohalarda, xususan, biokuzatuvchi materiallar, yog' ishlab chiqarish va bioyoqilg'ilarni tayyorlashda ishlatiladi.

Yetishtirish agrotexnikasi.

Kanakunjut kuzgi don, dukkakli don ekinlardan bo'shagan yerlarga ekiladi. Kanakunjut chuqur, yani 27-30 sm shudgor qilib haydalgan yerga qadaladi. Erta bahorda boronalanadi va 1-2 marta kultivatsiya qilinadi, shudgor oldidan 10-12 t go'ng, 60-80 kg fosfor solinadi. Ekish chuqurligidagi yer 120°C gacha isiganda ekish mumkin. Bu aprel oyiga to'g'ri keladi. Ekishdan oldin urug'i maxsus ishlov beriladi. Keng qatorlab ekiladi, qator orasi 70 sm, ekish chizmasi 70x20 sm, urug' SUPN-8, SPCH-6 M E yoki makkajo'xori va chigit ekiladigan seyalkalarda gektariga 50-80 ming dona unuvchan urug' sepiladi. O'simlik tup soni 30-40 ming/ga kam shoxlanadigan navlari uchun 50-60 ming/ga. Ekish chuqurligi 6-8 sm. Begona o'tlarga qarshi ekishdan oldin treflan (3-5 1/ga), maysalanishdan avval 2,4D 500 (1,6-2,0 1/ga)

bilan ishlanadi. Maysalanish boshlanganda qator orasiga ishlov beriladi va 3-4 marta sugʻoriladi.

Gullash va meva hosil qilish davrida ikki marta suv taraladi. Oʻsimlikda 4-5 ta chinbarg rivojlanganda asosiy poya va yon shoxlarning uchlari chilpinadi, bu tez rivojlanishga yordam beradi. Bir vaqtda yetilishi uchun defolatsiya qilinadi, buning uchun 10-15 kg 100 l suvga magniy xlorati qoʻllaniladi. Barglari 8-10 kundan soʻng quriydi va toʻkiladi.

Hosil KKS-6, KKS-9 kombaynlari yordamida yigʻiladi yoki shingillar kesib olinadi, quritiladi, mevalari yoriladi va don tozalash mashinalarida tozalanadi. Saqlanadigan urugʻlarning namligi 8 %dan oshmasligi lozim Bargli manzarali oʻsimliklar – amarant, grechixa, manzarali karam, yozgi kiparis, kanop, makkajoʻxori, lavatera, lebeda, mangold, paslen, perilla, ermon va boshqalar qatori kanakunjut oʻsimligi ham ekiladi. Kichik guruhlar va yagona oʻsimlik koʻrinishida ekish uchun qoʻllaniladi [4].

Hozirgi kunda tabobatda bir qancha maqsadlarda foydalanib kelinmoqda. Jumladan, bir bogʻ petrushkani maydalab ezib, yarim choy qoshiq spirt, yarim choy qoshiq suv, 2 osh qoshiq kanakunjut yogʻini aralashtirib, sochingizga surtilganda, soʻngra 1 soatdan soʻng sochni shampun bilan yuvish lozim. Soʻng 1 osh qoshiq sirkani 1 litr suvga qoʻshib, shu suvga bir necha tomchi limon sharbati ham tomizib, shu suv bilan sochlaringizni chayilganda sochlarni oʻta darajada jilolanishini koʻrishimiz mumkin. Barcha turdagi sochlar uchun niqob. Bu niqobni tayyorlash uchun oʻsimlik moyi bilan kanakunjut moyi 1:9 nisbatda aralashtirib soch ildizlariga surtiladi. Soʻng boshga sellofan qalpoq kiyib, 1 soatdan keyin yuvib tashlanadi. Sochni yuvishda quruq sochlarga moʻljallangan shampundan foydalanish kerak. Ushbu davo usuli haftada 2 marta, jami 10 marta takrorlanadi. Quruq sochlar uchun niqob. 1 dona tuxum, 1 choy qoshiq glitserin, 1 choy qoshiq sirka, 2 osh qoshiq kanakunjut moyi aralashtirilib, soch ildizlaridan to uchigacha surtiladi. Boshga issiq qilingan sochiq oʻrab qoʻyiladi. Sochiqni ikki-uch marta almashtirish lozim. Soch keragicha namlangandan soʻng tuxum sarigʻi ekstrakti qoʻshilgan shampun yordamida yuviladi. Ushbu davolash usuli haftada ikki marta bajariladi.[10]

Kanakunjut (kamfora) moyidan bir-ikki tomchi quloqqa tomizilsa, ogʻriqni yoʻqotib, quloqqa kirgan hasharotlarni oʻldiradi Oʻzbekiston Respublikasining “Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati toʻgʻrisida”gi qonuniga hamda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-3532-son “Farmatsevtika tarmogʻini jadal rivojlantirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, 2018-yil 27-martda Sogʻlikni saqlash vazirligi tomonidan “Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish tartibi toʻgʻrisida”gi nizom tasdiqlangan. Nizomda kanakunjut moyining zichligi 0,948-0,968 deb koʻrsatilgan.[6]

Kanakunjut moyining foydali xususiyatlari. Zamonaviy tibbiyotda kanakunjutning urugʻidan olingan moyi ishlatiladi. Urugʻi zaharli, tarkibida koʻp miqdorda moy, lipaza fermenti, oqsil

(shu jumladan, o'ta zaharli ritsin), ritsinin alkaloidi va boshqa moddalar bor. Kanakunjut moyi eng yaxshi surgi sifatida qo'llanadi. Bundan tashqari, u terini yumshatish uchun, ginekologiya va jarrohlik amaliyotida hamda surtma va balzamlar tarkibiga qo'shib, kuyganni, yaralarni, leyshmaniyozni davolashda ishlatiladi. Moyidan olingan undesilen kislotasining surtmasi (undesin) dermatozlar, psorioz va boshqa teri kasalliklarida qo'llaniladi. Kanakunjut yog'idan o'z o'rnida foydalanilsa bir qator xastaliklarga shifo bo'ladi. So'gallarni ketkazish uchun kechqurun yotishdan oldin 20 daqiqa davomida kanakunjut yog'i so'galga surtiladi. Yangi tug'ilgan go'dakning kindigi tezda tuzalmayotgan bo'lsa, unda kanakunjut yog'i surtib turmoq lozim. Kanakunjut yog'i haftasiga bir marta kipriklarga surtilsa, kipriklar tez o'sadi. Ayollarning ko'krak beziga kanakunjut yog'i surtilsa, sut ajralishi ko'payadi. Go'dakning sochi sekin o'sayotgan bo'lsa, uning boshiga kanakunjut yog'i singdirib surtiladi. Odatda bunday muolaja haftasiga ikki marta qo'llanilib, kechqurun surtilgan yog' ertalab yuvib tashlanadi. Sochning o'sishi jadallashgach, bunday tadbir haftasiga bir marta qo'llanishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Atabayeva H.N. va b., O'simlikshunoslik, Toshkent, 2000.
2. Xolmatov X.X., Axmedov A. Farmakognoziya. Toshkent, Ibn Sino nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1995, 8-12 betlar.
3. Atabayeva H., Qodirxo'jayev O. O'simlikshunoslik. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bakalavriyat ta'lim yo'nalishi uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Toshkent «Yangi asr avlodi» 2006.
4. Agroolam.uz. Bir va ikki yillik gul ko'chatlari yetishtirish qo'llanmasi. Toshkent, 2020.
5. Hidoyat.uz. Shamsiddinxon Boboxonov nashriyot – matbaa uyi. Toshkent, 2019.
6. Sog'likni saqlash vazirligining 2018-yil 27-martdagi "Dori vositalarini va tibbiy buyumlarni tayyorlash, saqlash, ularning sifatini nazorat qilish hamda ularni rasmiylashtirish tartibi to'g'risida"gi nizomi. Toshkent.

#### **Internet tarmog'i manbaalari:**

7. <https://diyor24.uz/date/2020/01>
8. [https://www.muslima.uz/index.php/uz/home-uzbek/94 bekajon/salomatlik/ 151- khar-dardning-shifosi-bor](https://www.muslima.uz/index.php/uz/home-uzbek/94%20bekajon/salomatlik/151-khar-dardning-shifosi-bor)
9. Avitsenna.uz. <https://erkak.uz/post/kanakunjut-moyining-foydalari>
10. <https://davolash.ru/sochlar/>
11. <https://www.hufocw.org/Download/file/6700>